

## “CAMBRIDGE LEARNING CENTER”

va

## “SINGAPUR XALQARO” MAK TABI

o‘rtasida o‘zaro hamkorlik to‘g‘risidagi

### MEMORANDUM

Ushbu memorandum “CAMBRIDGE LEARNING CENTER” va “SINGAPUR XALQARO” MAK TABI (kelgusida Tomonlar deb ataluvchilar) o‘rtasida ta’lim, chet tillarini o‘rgatish sohasida va o‘zaro qiziqish uyg‘otadigan boshqa masalalar bo‘yicha hamkorlikning mazmuni, sohalari va tartibini belgilab beradi.

#### 1-modda

Tomonlar mazkur Memorandumga muvofiq o‘z vakolatlari doirasida quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlik qiladilar:

- Tomonlarning Xalqaro maktabning o‘quv dasturlari, pedagog-o‘qituvchilar tajriba almashinuvi va marketing yo‘nalishlarida hamkorlik;
- Xalqaro maktab haqida o‘quvchilar, ota-onalar va pedagog-o‘qituvchilarga ma’lumotlarni yetkazish bo‘yicha hamkorlik.
- Xalqaro maktabga o‘quvchilarni imtihon asosida (test va suhbat) qabul qilish metodikasi bo‘yicha hamkorlik.

Taraflar o‘rtasidagi hamkorlik ushu memorandum shartlari va qonunchilikda taqiqilanmagan boshqa yo‘nalishlarda ham olib boriladi.

#### 2-modda

Mazkur Memorandumning qoidalarini amalga oshirish uchun Tomonlar o‘zlarining moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ikki tomonlama hamkorlikning yillik rejalarini ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar.

#### 3-modda

1. Mazkur Memorandum yoki unga muvofiq tuzilgan boshqa kelishuvlarning bajarilishi vaqtida har bir Tomon boshqa Tomonga taqdim etgan yoki undan qabul qilgan hujjat, axborot yoki boshqa ma’lumotlarni taqdim etgan Tomonning yozma rozilgisiz uchinchi tomonga oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar.

2. Mazkur Memorandum o‘z kuchini yo‘qotishidan qat’iy nazar, Tomonlar mazkur modda qoidalari amalda bo‘lishi to‘g‘risida kelishib oldilar.

#### 4-modda

Har bir Tomon mazkur Memorandumni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan o‘z xarajatlarini, agar Tomonlar o‘rtasida boshqacha tarzda xarajatlarni qoplash haqida yozma kelishuv bo‘lmasa, mustaqil tarzda qoplaydilar.

#### 5-modda

1. Tomonlar Memorandumni qo‘llash yuzasidan o‘zaro kelishilgan vaqtarda maslahatlashuvlar o‘tkazadilar.

2. Mazkur Memorandum qoidalarini talqin qilish, bajarish va qo'llashda Tomonlar o'rtasida vujudga keladigan har qanday kelishmovchilik yoki nizolar Tomonlar o'rtasida sudga murojaat qilinmasdan maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan do'stona ravishda hamjihatlik asosida hal qilinadi.

### **6-modda**

Mazkur Memorandumga Tomonlarning o'zaro yozma roziligiga ko'ra uning ajralmas qismi hisoblanadigan va Memorandumning 7-moddasida nazarda tutilgan tartibda kuchga kiradigan alohida bayonnomalar shaklida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

### **7-modda**

1. Mazkur Memorandum imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va besh (5) yil muddat davomida amal qiladi.


2. Mazkur modda qoidalaridan qat'iy nazar, Tomonlarning har biri boshqa Tomonni mazkur Memorandum amal qilishini tugatish niyati borligi to'g'risida istagan vaqtda, bu niyatni amalga oshirish sanasidan kamida bir (1) oy ilgari yozma ravishda xabardor qilib, uning amal qilinishini tugatishi mumkin.

3. Mazkur Memorandumning tugatilishi, uning tugatilishi sanasidan avvalroq kelib chiqqan yoki unga asoslangan Tomonlarning huquq va majburiyatlariga ta'sir etmasligi lozim.

4. Mazkur Memorandum 2024-yil «17» «iyul» kuni Toshkent shahrida Tomonlar uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki (2) nusxada davlat tilida tuzildi.

**CAMBRIDGE LEARNING  
CENTER  
Direktori**

Po'latov J.X.



**“SINGAPUR XALQARO”  
MAKTABI  
Direktori**

Hasanov I.A.

